

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XIDIROV MUHIDDIN SHERMAMATOVICH

**QASHQADARYO VILOYATI XIZMAT KO'RSATISH
TARMOQLARIDA AHOLI BANDLIGINING
HUDUDiy XUSUSIYATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Xidirov Muhiddin Shermamatovich

Qashqadaryo vilovati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligining hududiy
xususiyatlari..... 3

Хидиров Мухиддин Шерматович

Территориальные особенности занятости населения в сфере услуг
Кашкадарьинской области 21

Khidirov Muhiddin Shermamatovich

Territorial features of employment in the service sector of the Kashkadarya
region..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XIDIROV MUHIDDIN SHERMAMATOVICH

**QASHQADARYO VILOYATI XIZMAT KO'RSATISH
TARMOQLARIDA AHOLI BANDLIGINING
HUDUDiy XUSUSIYATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2021.2.PhD/Gr161 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Safarova Nasiba Irankulovna geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Turdimambetov Izimbet Raxmetovich geografiya fanlari doktori (DSc), professor Muhammedov Odil Lapasovich geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 9-fevral soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№5 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 29-yanvar kuni tarqatildi.
(2024-yil 24-yanvardagi 55-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d., PhD

A.Abdulqosimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida aholi bandligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish murakkab masala bo'lib, ko'plab davlatlarni tashvishga solmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining "Global bandlik va ijtimoiy istiqbollari: 2023-yildagi tendensiyalar" hisobotiga ko'ra, 2022-yil oxirida dunyoda ishsizlar soni 205,2 mln kishini tashkil qilgan, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 11,2 mln kishiga kamaygan¹. Shu bois, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 10-maqsadi "Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish" vazifasi yechimiga yo'naltirilgan². Bu holat mamlakatlarning o'z aholisining ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan islohotlar olib borishni taqozo etadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mehnat resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, ulardan foydalanishning ijtimoiy-demografik omillari va hududiy xususiyatlarini aniqlash, aholi bandligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarda aholini ish bilan ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, demografik, ijtimoiy-ekologik, iqtisodiy, siyosiy, infrastrukturaviy omillarni tahlil qilish, ishsizlik darajasini kamaytirish, ishsizlikni ijtimoiy oqibatlarini yumshatish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish borasidagi imkoniyatlarni ochib berishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy joylashtirish va sifatini yaxshilash, mehnat resurslaridan foydalanish, aholining bandlik darajasini oshirish bo'yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish»³ bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar, ayniqsa, aholi o'sish sur'ati yuqori bo'lgan Qashqadaryo viloyatida aholi bandligi, mehnat resurslarining shakllanishi va hududiy tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan chuqur ilmiy-tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrda 1011-son "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish,

¹ https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---inst/documents/publication/wcms_865332.pdf

² <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida", 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 20-apreldagi 201-son "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" va VIII. "Yer haqidagi fanlar" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari va ularda aholi bandligining hududiy xususiyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillar turli davrlarda dunyoning ko'plab mamlakatlari olimlari tomonidan o'rganilgan. Uzoq xorij va MDH mamlakatlarida J.Graunt, A.Smit, A.Giyyar, V.Leontev, G.Bekker, R.Xoll, P.Deymond, D.Mortensen, X.Lemann, K.Pissarides, K.Simmerman, X.Raynerlar, G.Strumilin, A.Ya.Boyarskiy, T.I.Zaslavskaya, D.Breyev, Ye.V.Kasimovskiy, B.I.Kononenko, E.R.Saruxanov, V.A.Borisov, D.I.Valentey, P.Litvyakov, Ye.Chernova, A.Kotlyar, A.G.Vishnevskiy, V.Ye.Gimpelson kabi olimlarning ilmiy ishlari mazkur masalalarga bag'ishlangan.

O'zbekistonda aholi bandligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy joylashuvi, rivojlanish omillari kabi masalalar bilan M.Q.Qoraxonov, M.R.Mullajonov, A.A.Abdug'aniyev, Q.X.Abdurahmonov, A.R.Vaxobov, E.A.Ahmedov, B.X.Umurzakov, N.Xo'jayev, Sh.R.Xolmo'minov, R.A.Ubaydullayeva, G.K.Saidova, T.I.Raimov, A.A.Qayumov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, M.R.Bo'riyeva, M.I.Nazarov, Z.N.Tojiyeva, N.I.Safarova, Z.A.Tolametova, R.B.Qodirov, I.Otajonov, G.Xodjayeva, G.Utepova, N.N.Yuldashev, L.Z.Ibragimov va boshqa olimlar shug'ullanishgan. Ularning ilmiy izlanishlari respublikamizda xizmat ko'rsatish tarmoqlari va aholi bandligini ta'minlashning nazariy jihatlariga bag'ishlangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati aholisi va aholi bandligiga oid ayrim yondashuvlar R.Xodiyev, S.Islomov, M.Yangiboyev, I.Toirov, Sh.Imomov, L.Erdonov, K.Xomitov, A.Islomov, N.Yuldashev, D.Egamova kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

Ammo Qashqadaryo viloyatining xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ta'sir etuvchi omillar, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligining hududiy xususiyatlari va ularni takomillashtirish yo'llari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining “O‘zbekiston Respublikasini ekologik vaziyat bo‘yicha rayonlashtirish metodologiyasi va moslashuvchan elektron dasturiy ta‘minotini yaratish” mavzusidagi 01/13-2022-raqamli amaliy loyiha (2022-2024 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligining hududiy xususiyatlarini aniqlash va takomillashtirish, aholi bandligini ta‘minlashning samarali yechimlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvining ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish hamda Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlanishining mavjud holati va imkoniyatlarini o‘rganish;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy joylashuviga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligini sotsiologik so‘rov asosida baholash;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligining hududiy rivojlanishidagi asosiy muammolarini aniqlash hamda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining hududiy joylashuvi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligining xaritalarini yaratish;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, muammo va istiqbollarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligining hududiy tafovutlari, ularga ta‘sir etuvchi omillar hamda u bilan bog‘liq muammolarni aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kartografik, hududiy tahlil, tarixiy, kuzatuv, statistik, geografik taqqoslash, tizimli-tahlil, sotsiologik so‘rov metodlari va GAT texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy joylashuvi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma, siyosiy, ekologik omillari aniqlangan;

ArcGIS 10.8.1 dasturida asosida 1:1140000 masshtabda Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvi va unda aholi bandligi xaritalari yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanishining holati, asosiy muammolari va imkoniyatlari, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligi darajasi sotsiologik so‘rov asosida baholangan va u bilan bog‘liq muammolar aniqlangan;

Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilangan hamda hududiy tarkibi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligining hududiy xususiyatlari aniqlangan;

Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari aholining bandlik imkoniyatlariga qarab ixtisoslashgan tarmoqlarga ajratilgan;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligi xaritalari yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti materiallari, shuningdek, muallifning bevosita o'rganilayotgan hududda kuzatuv ishlari va sosiologik so'rov natijalari, to'plangan dala-tadqiqot, eksperimental ma'lumotlari asosida yaratilgan xaritalar, nazariy ishlanmalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmat ko'rsatish sohalari va ularni hududiy tashkil etishning tarixiy ildizlari, ularning hududiy joylashuvi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillarning aniqlanganligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning ustivor yo'nalishlari takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosa, ishlab chiqilgan tavsiyalardan Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish va aholi bandligi muammosini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini takomillashtirish, aholining bandlik darajasini orhirish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarning hududiy rivojlanish holatini tartibga solish imkoniyatini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligining ijtimoiy-demografik omillari va hududiy xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining holati, asosiy muammolari va imkoniyatlari, shuningdek, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligi muammolari va aholi bandligini sotsiologik so'rov asosida baholash Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 28-iyundagi 05-48-6/10 son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat aholisining bandlik darajasini oshirish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarning hududiy rivojlanish holatini tartibga solish imkonini bergan;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligining ArcGIS 10.8.1 dasturida ishlangan 1:1 140 000 masshtabdagi xaritalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi

amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 28-iyundagi 05-48-6/10 son ma’lumotnomasi). Natijada, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining hududiy holati, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning rivojlanganlik darajasi, aholining xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida bandligini rejalashtirish imkonini bergan;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy joylashuvi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 28-iyundagi 05-48-6/10 son ma’lumotnomasi). Natijada, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini yanada aniqlashtirish imkonini bergan;

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliyotida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 28-iyundagi 05-48-6/10 son ma’lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytirish va aholi bandligi muammosini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejalari bilan bog‘liqligi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obykti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilingani, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va ularda aholi bandligini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan, unda xorijiy va mahalliy mutaxassislarining “xizmat ko‘rsatish tarmoqlari” tushunchasining mazmun-mohiyatiga oid fikrlari, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini hududiy joylashtirishda aholi joylashuvi, aholi punktlarining katta-kichikligi,

ularning funksiyasi va transport bilan ta'minlanish darajasi kabi xususiyatlar tahlil qilindi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi kishilik jamiyatining asosi bo'lib, bu sohaning uzliksizligi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitini ta'minlashda xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar muhim o'rin tutadi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'zining vazifasiga ko'ra aholining moddiy farovonligi va ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydi hamda ishlab chiqarish munosabatlarining barcha tarmoqlarini bir-biri bilan bog'laydi. U insonlarning turli ehtiyojlarini qondirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Qator iqtisodchi va geograf olimlar xizmat ko'rsatish sohasini "moddiy buyum shaklida mujassamlashmagan inson faoliyati", deb hisoblaydi. Masalan, polyak iqtisodchisi O.Langening (1963) ta'kidlashicha, xizmat ko'rsatish sohasi biror bir mahsulot ishlab chiqarishga qaratilmagan inson talabini qondirish bilan, to'g'ridan-to'g'ri yoki qisman aloqada bo'lgan turli xizmatlardir.

Ma'lumki, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuv xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan harakat asosida ijtimoiy-iqtisodiy geografiya shakllandi. Ushbu jarayonda aholining qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lishini N.N.Baranskiy (1960) quyidagicha ifodalagan: iqtisodiy geograf shuni unutmasligi kerakki, aholi nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki, iste'molchi hamdir va shunday qilib, iqtisodiyot boshdan oyoq aholi bilan bog'langan.

A.S.Soliyev (2013) ijtimoiy geografiya fanining quyidagi 3 asosiy tarkibiy qismini ajratadi: iqtisodiy geografiya, sotsial-iqtisodiy geografiya, sotsial geografiya. U aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasini sotsial-iqtisodiy geografiya tarkibiga kiritadi.

"Xizmat ko'rsatish sohasini hududiy tashkil etish" tushunchasining mohiyati birinchi marta V.V.Pokshishevskiy, S.A.Kovalyev, Yu.G.Saushkin tomonidan ochib berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish tarmoqlariga shaxsiy, ijtimoiy va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, nomoddiy mehnat faoliyati olib boriladigan, barcha turdagi xizmatlarni o'z ichiga oladigan, jamiyatning iqtisodiy hayotini ma'naviy-ijtimoiy shart-sharoitlar bilan boshqa sohasini samarali rivojlanishini ta'minlovchi, to'g'ridan-to'g'ri biror bir mahsulot ishlab chiqarishga qaratilmagan tarmoqlar majmui deb ta'rif berish maqsadga muvofiq.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki turga bo'lish mumkin:

aholining moddiy talab va ehtiyojlariga xizmat qiluvchi sohasi (savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, uy-joy kommunal xo'jalik, yo'lovchi transporti, aloqa, ijtimoiy ta'minot, kredit, sug'urta va boshq.).

aholining nomoddiy talab va ehtiyojlariga xizmat qiluvchi sohasi (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, rekreatsiya va boshq.).

Ish bilan bandlik jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim sektori bo'lib, mehnat faoliyatining umumlashgan ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur

ko'rsatkich turli mamlakat va mintaqalarda turlicha bo'lib, o'z navbatida, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ham belgilab beradi.

Davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti aksariyat holatlarda nomoddiy soha tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir etishi bilan bir qatorda, unda bandlar ulushini ham ortishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda jahon davlatlarida ushbu sohada mehnatga layoqatli aholining yarmidan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Uning iqtisodiy ahamiyati ortib borishi bilan birga sohada band bo'lganlarning ulushi oshadi. Shu bilan birga nodavlat sektorga xos xizmatlar sohasi rivojlana borishi bandlik ko'rsatkichlarining o'zgarishiga olib keladi deb taxmin qilish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari va ularda aholi bandligining iqtisodiy geografik tahlili”** deb nomlangan. Unda Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishi va aholi bandligini oshirishning asosiy muammolari, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tarkibi, rivojlanish holati va ularga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasi aniqlangan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati ma'muriy birliklari iqtisodiyotda band aholi ulushiga ko'ra guruhlarga ajratilgan.

Aholining ehtiyojlarini qondirishda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rolini ko'rsatib berish uchun ularni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish zarur. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylanishi va rivojlanishi har bir iqtisodiy mintaqaning ijtimoiy-demografik xususiyatlariga qarab aniqlanishi kerak.

Qashqadaryo viloyatida 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, aholi soni 3 mln 271 ming kishi bo'lib, 1 km² ga 121,9 kishi to'g'ri keladi. Aholining katta qismi qishloqlarda yashaydi (57 %).

Jahon mamlakatlarida aholi bandligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirishga murakkab muammo sifatida qaralib, uni ijobiy hal qilish yo'llari izlanmoqda. Jumladan respublikamizda ishsizlik darajasi 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra 9,3%ni tashkil etdi.


Hozirgi davrda aholiga xizmat ko'rsatish o'ndan ortiq sohalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, ular: 1) uy-joy va kommunal xizmati; 2) chakana savdo; 3) umumiy ovqatlanish; 4) maishiy xizmat; 5) ta'lim xizmati; 6) sog'liqni saqlash; 7) ijtimoiy ta'minot; 8) rekreatsiya va turizm xizmati; 9) madaniy xizmat; 10) moliya xizmati; 11) yuridik xizmat; 12) aloqa xizmati; 13) yo'lovchi transporti xizmati; 14) yo'l va yo'l xavfsizligi xizmati va boshq.

Ijtimoiy sohalarning ustuvor rivojlanishi o'ziga xos demografik vaziyatga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyati uchun ham dolzarbdir. Bu sohada, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy, kommunal, turizm va rekreatsiya, moliyaviy, madaniy umumiy ovqatlanish va boshqa turli xizmatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyatida 10 dan ortiq xizmat ko'rsatish tarmoqlari shakllangan, viloyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa imkoniyatlaridan kelib chiqib, aholi bandligini oshirishda sug'urta, audit, konsalting, moliya-kredit, turizm kabi xizmatlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining bu kabi yo'nalishlari viloyatda hali yetarli darajada rivojlanmagan (1-rasm).

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni taqozo qiladi. 2022-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, hududdagi

iqtisodiyotda bandlar jami 1211,2 ming kishi bo‘lib, shundan 53,24 % xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida band. Bu ko‘rsatkich 2010-yilda 50 %, 2015-yilda 47,9 % va 2020-yilda 53,1 % ni tashkil qilgan.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining takibi.

Qashqadaryo viloyatida so‘nggi yillarda aholi sonining tez sur‘atlar bilan o‘sishi, yangi aholi punktlarining tashkil etilishi, aholini sifatli turmush kechirishi uchun xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, aholining ish bilan bandligini taminlash borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Viloyatdagi ba’zi tumanlar maydonining kattaligi, olis aholi mazilgohlarini bilan tuman markazi o‘rtasidagi masofaning uzoqligi sababli (Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi tumanlarida) xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida muammolar mavjud. Viloyatning tabiiy sharoiti, tumanlarning joylashgan geografik o‘rni, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillari xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini sifatli tashkil etishda muammolarga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanishi o‘ziga xos demografik vaziyatga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyati uchun dolzarbdir. Bu borada tibbiy xizmat, maishiy, kommunal, turizm va rekreatsiya, moliyaviy, madaniy, umumiy ovqatlanish va boshqa turli xizmatlar asosiy ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy xizmat. Viloyatda faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining soni 45 ming nafar bo‘lib (1/78,8), shuning 38,4 ming nafarini o‘rta tibbiyot xodimlari (1/92,4), 6,6 ming nafarni (537,8) shifokor xodimlar tashkil qiladi

Viloyatda 2022-yil boshida tibbiyot xodimlarining aholi jon boshiga nisbatan eng past ko‘rsatkichi Mirishkor, Muborak, Dehqonobod va Nishon tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan (Mirishkor tumanida tibbiyot xodimlari soni 1,1 ming kishi, har 1105 nafar aholiga 1 nafar tibbiyot xodimi to‘g‘ri keladi). Eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahri, Kitob, Chiroqchi va Qarshi tumanlarida qayd etildi va 85 nafar aholiga 1 nafar tibbiyot xodim to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Viloyatda tibbiyot sohasi bilan bog‘liq muammolar hali ham mavjud bo‘lib, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq islohotlarni jadal olib borish, xususan, viloyatda tibbiyot oliy o‘quv yurtini tashkil etishni taqozo etadi.

Turizm xizmati. Viloyatda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 2010-yilda 23 ta, 2022-yilda 43 tani tashkil etdi. 2010-yilga nisbatan 2022-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylar soni 20 taga ko'paydi. Turistik faoliyatni amalga oshirayotgan tashkilotlar hududda 2010-yilda 7 ta, 2016-yilda 5 ta va 2022-yilga kelib 7 tani tashkil qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha viloyat respublikada oxirgi o'rinlarda turadi. 2010-yilga nisbatan 2022-yilda qariyb 10 yilda turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni o'zgarmagan.

Madaniy-ma'rifiy xizmatlar ko'rsatish. Viloyatda teatrlar soni 2011-yilda 4 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 5 tani tashkil qildi. Qariyb 10 yil davomida viloyatda teatrlar soni 1 taga ortgan. Hozir kunda (2021) viloyatda axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari umumiy soni 23 tani tashkil etdi. Viloyatda faoliyat olib borayotgan 10 ta muzeylarning 1 tasi Qarshi shahrida bo'lsa 9 tasi Shahrisabz shahrida joylashgan. Har bir tuman markazida teatr, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari, muzeylarni tashkil etish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, sonini ko'paytirish orqali aholining madaniy va ma'naviy olamini boyitish hamda dunyo qarashini kengaytirish bilan bir qatorda bu kabi xizmat ko'rsatish obyektlarida aholining bandligini oshirish imkoniyati ham tug'iladi.

Savdo xizmati. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi, Qarshi shahrini hisobga olmaganda, Kitob tumanida eng yuqori, eng past esa Kasbi tumanida kuzatiladi. Salohiyat nuqtayi nazaridan esa Shahrisabz, Kitob va Qarshi qishloq tumanlari ajralib turadi. Jami viloyat chakana savdo aylanmasining 48,7 % birgina Qarshi shahri zimmasiga tushadi. Bu uning yirik rayon hosil qiluvchi yoki rayonga xizmat qiluvchi vazifasini ko'rsatib turibdi. Viloyatda savdo va bozor xizmatlari eng tez rivojlanayotgan hamda o'zida eng katta aholini band qilgan tarmoq sanaladi.

Komunal xizmat. Viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi o'rtacha 81,7 % ni tashkil etib, 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra Shahrisabz, Muborak va Kitob tumanlarida birmuncha yaxshiroq (87-89 %), Dehqonobod tumanida esa pastroq (52,8 %). Viloyat aholisining 70,4 % i tabiiy gaz bilan ta'minlangan. Eng katta tabiiy gaz ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan bunday mintaqada mazkur ko'rsatkich uncha yuqori emas (har 10 ta xonadondan 3 tasida tabiiy gaz yo'q). Tabiiy gaz bilan ta'minlanish Kasbi tumanida 81,6 %, Nishonda 81,3 % bo'lgani holda, G'uzorda 44,3 % (Sho'rtangaz majmuasi shu hududda), Dehqonobodda 45,2 % ga teng. Shuningdek, Yakkabog' va Qamashi tumanlarining ham vaziyati uncha yaxshi emas (51,5 va 44,0 %).


Yuqoridagi keltirilgan statistik raqamlar ba'zi ijtimoiy sohalarning qishloq tumanlari miqyosidagi real holatini aks ettiradi. O'z navbatida, bu ko'rsatkichlar viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarining hududiy jihatlarini yaqqol namoyon qiladi. Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yetakchi o'rinlarga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero hududlarning tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma imkoniyatlaridan turli maqsadlarda samarali foydalanish, o'z navbatida, aholining bandlik darajasini oshirish, turmush sharoitlarini yuksaltirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Aholi ehtiyojlarini qondirishda xizmat ko'rsatish tarmoqlari rolini miqdor va sifat jihatdan yaxshilash, xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ta'sir etuvchi omillar (tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma, siyosiy va ekologik), xususiyatlarni inobatga olib, "kuchli"; "o'rtacha"; "past"; "ta'siri yo'q" kabi darajalarda baholandi.

Qarshi va Shahrisabz shaharlari Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning ta'sir darajasi bo'yicha kuchli, deb baholandi. Keyingi o'rinlarni Kitob, Shahrisabz, G'uzor va Mirishkor tumanlari egalladi. Hududlarning rivojlanish holati, infratuzilma, siyosiy va ekologik jihatlari inobatga olingani bois Muborak, Yakkabog', Chiroqchi, Dehqonobod, Koson, Qamashi, Kasbi, Nishon va Ko'kdala tumanlariga yuqorida nomlari keltirilgan mezonlarning ta'siri nisbatan pastroqdir. Tabiiy sharoit, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, infratuzilma imkoniyatlaridan foydalanish kabilari, hududlarning rivojlanishiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan xizmat ko'rsatish tarmoqlari va ularda aholining bandlik darajasini baholashda aynan shu jihatlarga e'tibor berish lozim. Shu sababli xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda ilg'or mamlakatlar modelidan foydalanish va ular erishgan yutuqlarni respublikamiz, jumladan, Qashqadaryo viloyatida tatbiq etish yo'llarini o'rganish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish hamda aholi bandligini oshirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiq:


xizmat ko'rsatish tarmoqlarida xususiy sektor rolini oshirish;
 xususiy mehmonxonalarni ishga tushirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish;
 xalqaro ko'rgazmalarda doimiy qatnashishni ta'minlash (reklama qilish);
 rejalashtirishning aniqligi, reja tuzishda istiqbolning aniqligini ta'minlovchi zamonaviy metodlar, vositalardan foydalanish.

Yuqoridagi har bir taklif va xulosalardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad viloyatda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish hamda aholining yashashi uchun qulay imkoniyatlarni yaratib berishdan iboratdir.




2-rasm. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Qashqadaryo viloyatida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning hajmida tumanlarning ulushi quyidagicha: 6,1% dan yuqori bo‘lgan hududlar: Qarshi shahri, Shahrisabz shahri, Koson, Kitob tumanlari; 5,1-6,0 %: G‘uzor, Qarshi, Chiroqchi va Yakkabog‘ tumanlari; 4,5-5,0 %: Shahrisabz, Qamashi, Dehqonobod va Nishon tumanlari; 4,5 % dan kam: Mirishkor, Muborak, Kasbi tumanlari (3-rasm).




3-rasm. Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining hududiy tarkibi xaritasi

Qashqadaryo viloyatida 2010-yilda mehnat resurslari soni 1 mln 493 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib, 1 mln 819 ming kishiga yetgan. Ya’ni shu yillar davomida 326 ming kishiga yoki 1,2 baravarga oshgan. Mehnat resurslarining bu tariqa oshishi viloyatda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholi bandligini ta’minlashni taqozo etadi (4-rasm).



4-rasm. Qashqadaryo viloyati mehnat resurslari dinamikasi (2010-2022-yy.)

Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligining yuqori ko'rsatkichlari (50,1 % dan yuqori) Qarshi, Shahrisabz shaharlari, Kitob, Shahrisabz, G'uzor, Muborak, Qamashi, Qarshi, Koson tumanlari; o'rtacha ko'rsatkichlari (45,1-50 %) Mirishkor, Chiroqchi, Nishon tumanlari; nisbatan past ko'rsatkichlari (45 % dan kam) Nishon, Kasbi va Dehqonobod tumanlariga to'g'ri keladi (5-rasm).



5-rasm. Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligi xaritasi

XMT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat miqyosida 3-5 % darajasidagi ishsizlik iqtisodiyot uchun normal holat (ishsizlikning tabiiy chegarasi) hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasi 9,3 % ni tashkil etadi va bu xalqaro ishsizlikning tabiiy chegarasi 2 baravarga ko'pdir.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvi va aholi bandligini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida aholi punktlari uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish obyektlarining minimal darajasi ishlab chiqilgan, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligi sotsiologik so'rov asosida baholangan, viloyat xizmat ko'rsatish tarmoqlarida aholi bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qaroriga bilan tuman (shahar) va mahallalarda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining 18 turi joriy qilindi. Mahallalarda mavjud bo'lishi, tijorat banklari hamda tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kredit liniyasi hisobidan kredit ajratilishi tavsiya etiladigan xizmat turlari ro'yxatiga, jumladan, sartaroshxona, savdo do'konlari, dorixonalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ta'lim markazlari, go'zallik saloni, maishiy texnikalarni ta'mirlash, avtotransport vositalarini ta'mirlash, tantanalar va oilaviy tadbirlarni tashkil etish xizmatlari, poyabzal tikish va ta'mirlash, kiyim

tikish va ta'mirlash (atelye), internet zallari, nusxa ko'chirish, avtotransport vositalarini yuvish shoxobchasi, xo'jalik mollari va uy-ro'zg'or buyumlarini ijaraga berish, zooveterinariya punktlari, umumiy ovqatlanish xizmatlari va sport maydonchalari kiritilgan.

Shundan kelib chiqib, viloyati aholi punktlari uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish obyektlarining minimal darajasi ishlab chiqildi (1-jadval).

